


AGRO



IQTISODIYOTI

ilmiy-amaliy agroiqtisodiy jurnal



Agroiqtisodiyot

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АГРОИҚТИСОДИЙ ЖУРНАЛ

МУНДАРИЖА

4. **Sh.MAVLANOV.** Ta'lim sohasini rivojlantirish-dagi muammolar va ta'sir etuvchi omillar
7. **Ш.МУСТАФАКУЛОВ.** Ўзбекистон давлат бoшқарувида халқаро рейтинг ва индекслар: стратегик аҳамият ва ислохотларни жадаллаштириш йўналишлари
16. **Ш.САТТАРОВ.** Основные факторы развития сферы услуг в Узбекистане
20. **Р.ДУСМУРАТОВ.** Тўловга қобилиятсизлик таҳлили моделларининг қиёсий тавсифи ва қўлланувчанлиги
24. **J.KUCHAROV.** Qishloq xo'jaligiga investitsiyalarni jalb etish imkoniyatlari
28. **У.ҚҶЧЧИЕВ, Ж.ХАЙДАРОВ.** Парандачилик тармоғига молиявий хизматлар кўрсатиш тизимини такомиллаштириш
31. **A.TOSHBOWOEV.** Ma'naviy-g'oyaviy tahdidlarga qarshi kurash vositalari va imkoniyatlari
32. **I.YULDASHEVA.** Nodavlat va notijorat tashkilotlarining hisob siyosatini xalqaro standartlar asosida tashkil qilish
39. **A.IBRAGIMOV, M.G'AFFOROV.** Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda donchilik majmuasi iqtisodiy ahamiyatini oshirish
43. **Ж.КУЧАРОВ.** Таълим хизматларининг инновацион хусусиятлари
46. **Z.QAYIMOVA.** Iqtisodiy o'sishning institutsional omillari va uni baholash usullari
49. **T.FAYZULLAEVA, S.ABDUSALOMOVA.** Kambag'allikni qisqartirishning institutsional va huquqiy asoslari
52. **B.XAKIMOV.** O'zbekiston qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyotning roli va ahamiyati
56. **R.XASANOVA.** Ipak qurti urug'chiligi tizimini rivojlantirish yo'llari
59. **J.KUCHAROV, M.TILOVOV.** Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish barqarorligini ta'minlashda innovatsiyalarning o'rni
63. **T.ФАЙЗУЛЛАЕВА, С.САИДОВА.** Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришда хорижий давлатлар тажрибаси
67. **G.YUNUSOVA.** Rivojlanayotgan mamlakatlarda raqamlashtirishning iqtisodiy o'sishga ta'siri
71. **G.NAZAROVA.** Zamonaviy jahon iqtisodiyotida oziq-ovqat xavfsizligi muammosi
75. **R.XASANOVA.** Ipak qurti urug'chiligi tizimida innovatsion faoliyat samaradorligini oshirish yo'llari
79. **Ж.КУЧАРОВ, С.АБДУСАЛОМОВА.** Кичик бизнес хусусий тадбиркорик инновацион маркетингдан фойдаланиш ва уни давлат томонидан қўллаб-қувватлаш
84. **A.TASHANOV.** Buzg'unchi g'oyalarning shakllari
89. **N.MIRZAKHIDOVA.** The role of language learning in the economic sphere
91. **N.NIYAZOVA, Sh.BAXODIROV.** Integratsiyalashgan axborot ta'lim muhitida yosh o'qituvchilarni pedagogik faoloyatga tayyorlashda sun'iy intellektning ahamiyati
94. **N.TURSUNALIYEVA.** Kasbga doir interaktiv infografika vositalarini yaratish texnologiyalaridan foydalanish
98. **S.BO'TAYEVA.** Investitsiya oqimlari va axborot tizimlarida korxonalar boshqaruvini samarali tashkil etish
102. **M.MUKHITDINOVA.** The role of digital platforms and startups in job creation: government incentives and constraints
105. **Р.ЗИЯДУЛЛАЕВА, Ж.КУЧАРОВ.** Аграр соҳада ер ресурсларидан самарали фойдаланиш
108. **A.XURRAMOV, S.DUSBOYEV.** Masofaviy ta'lim jarayonini amalga oshirish: tamoyillar va vositalar
112. **O.YAX'YAYEV.** Qishloq xo'jaligida kungaboqar o'simligini yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari
115. **M.NAZAROVA.** Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashda meva - sabzavotchilik tarmog'ini rivojlantirish
118. **Sh.QIYOMOV.** Naqqoshlik san'atining g'arb va sharqda rivojlanishi
120. **K.NIZAMOVA.** Effective strategies for teaching economics terminology
122. **T.ФАЙЗУЛЛАЕВА.** Қишлоқ хўжалигида кооперация муносабатларини кредитлашнинг ҳуқуқий асослари

IPAK QURTI URUG'CHILIGI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Rayxon XASANOVA,
Qarshi davlat texnika universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada ipak qurti urug'chiligini rivojlantirish yo'llari va bugungi kundagi ahamiyati. Ipak qurti urug'chiligini ilm-fanga rivoji hamda yanada takomillashtirish yo'llari va rivojlanayotgan mamlakatlardagi o'rni shu sohani yanada rivojlantirish takomillashtirish keng taqbid qilish bo'yicha taklif va mulohazalar xulosalar atroflicha yoritilib berilgan.

Аннотация. В данной статье рассмотрены методы развития шелководства и его значение на сегодняшний день. Подробно описаны научное развитие шелководства и пути его дальнейшего совершенствования, а также его роль в развивающихся странах, предложения и мнения по дальнейшему развитию и совершенствованию широкого применения этой области.

Abstract. In this article, the methods of development of silkworm breeding and its importance today. Scientific development of silkworm breeding and ways to further improve it, as well as its role in developing countries, proposals and opinions on the further development and improvement of the wide application of this field are detailed.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlari qatori ipakchilik hozirgi zamon fan va texnika yutuqlariga amal qilib, ilg'or tajribalarni qo'llagan xolda ish olib borilmoqda. Mustaqil O'zbekistonni jadallik bilan rivojlana borishi, ilg'or mamlakatlar qatoridan mustahkam o'rnini egallashda xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Jahon talablariga javob bera oladigan yuqori sifatli mahsulot olish uchun avvalo, urug'chilik korxonalarini tomonidan tayyorlangan yuqori hosil olishni ta'minlovchi urug' quyidagi asosiy talablarga javob berishi kerak. Birinchidan pillakorlar oladigan hamma urug' o'zining tarkibiy bo'yicha yuz foiz bir xil zotga (yoki duragayga) mansub bo'lishi, ya'ni unda bir dona ham boshqa zot yoki boshqa duragayning urug'i aralashgan bo'lmasligi kerak. Ikkinchidan fiziologik holati bo'yicha hamma urug' bir xil va a'lo sifatli bo'lishi lozim, bunga erishish uchun uni tayyorlashdagi butun texnologik jarayonlarini amalga oshirishda belgilangan ekologik sharoitlar, harorat, qurt boqilayotgan havoning nisbiy namligi, xonani shamollatib turish va ipak qurtini hamma rivojlanish davrida, urug', qurt, pilla va kapalaklarni joylashtirish maydoni va hajmi, yoritish sharoiti hamda oziqlantirishdan qat'iy nazarda bo'lishi kerak. Uchinchidan urug' ipak qurtining kasalliklarini chaqiruvchilardan holi bo'lishi, ular urug'ning ichida ham, sirtida ham bo'lmasligi kerak. Bunday qator ishlar natijasida tayyorlangan urug'lar sifatli va sanoat talabiga javob beradigan urug'lar bo'ladi. Naslchilik

ishlari o'ziga eng avvalo yangi zotni yaratishni va duragay yo'nalishlarni tanlash, so'ngra shu zot va duragaylarni har xil sinash, u muvaffaqiyatli tugallansa, superelita va elita urug'larini tayyorlash hamda so'ngida sanoatda boqish uchun «sanoat» urug'ini tayyorlash vazifasini qo'yadi. Bu ishlarni bajarish esa mahsus ilmiy, ilmiy ishlab chiqarish tashkilotlari hamda idoralar 20 amalga oshiradi. Hozirgi vaqtda urug'chilik korxonalarida qo'llanayotgan urug' tayyorlash tartibi va boqilayotgan zot hamda duragaylardan yuz foiz haqiqiy urug' olish imkoniyatini bermaydi, bu esa sanoat uchun qurt boqishda olinadigan pilla hosili va sifatiga ayniqsa salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, yengil sanoat xodimlarining sifatli tabiiy ipakka bo'lgan talabi yil sayin ortib bormoqda. Ammo hozirda respublikada tayyorlanayotgan pillaning tashqi va ichki ko'rinishlari talabga javob bermaydi. Jumladan, shakli turli xil, tiniq, oq rangli pillalar 5-10 foizni tashkil qiladi, qolgan pillalar xira rangli, dog'li bo'ladi. Kar pillalar ham 5-10 foizni tashkil qiladi. Ikkitasi bitta pilla o'ragan oq pachoq, qora pachoqli braklari ko'p pillalar tayyorlanmoqda. Albatta, bu keltirilgan ko'rsatkichlar yillar davomida o'zgarib turadi. Umuman tayyorlanayotgan pilla sifati o'sib kelayotgan bozor talabiga to'la javob bera olmayapti. Shu sababli yetishtirilgan pillalar omborlarda ko'p vaqtgacha turib qolmoqda. Buning asosiy sababi, hozirda ishlab chiqarishda boqilayotgan murakkab duragay Tetragibrid va boshqa duragaylardan tayyorlangan urug'larning toza emasligidir. Hozirda olimlarimiz tomonidan juda ko'p ilmiy izlanishlar va kuzatishlar olib

Kalit so'zlar: ipak qurti, ilm-fan, pilla, lichinkalar, kapalak, tola, investitsiyalar, ipakchilik, eksport, tutzor, urug'

borilmoqda. Ipak qurti urug'ini tayyorlash texnologiyasiga bir qancha ijobiy tavsiyalar berilmoqda. Maqsad, ipakchilikni jahon standart darajasidagi mahsulot yetishtirishga va O'zbekiston ham o'zining tayyorlagan ipak qurti urug'ini dunyo miqyosiga chiqarishdir.

Hozirgi kunda O'zbekistonda ipak qurtining Tsellyulyar usulida urug' tayyorlanganida kapalaklarni mikroskopda tekshirish. Mikroskopda tekshirishning maqsadi. Mikroskopda tekshirishning muddatlari. Mikroskopda tekshirishdan oldin urug' to'plamlarining hisobi, fiziologik va ishlab chiqarishdagi yaroqsiz urug' to'plamlarini ajratish. Oddiy sellulyar usulda urug' tayyorlanganda, mikroskopda tekshirish uchun kapalaklarni ezish. Zichlashtirilgan usulda mikroskopda tekshirilganda kapalaklarni ezish. Mikroskop ko'ruvchining xatosi va uning sabablari. Mikroskopda tekshirish vaqtida pebrina sporalari ko'rmaslik sabablari. Urug' tayyorlashning biologik usuli. Ipak qurtining tabiiy immunitetini va pebrinani issiqlikni ta'siri natijasida kuchaytirish usullari. G'umbaklarga ishlov berish. Urug'larga ishlov berish. Ularni samaradorlik darajasi. Bu usul faqat sanoat tuxumlarini tayyorlash, shu jumladan takroriy qurt boqish uchun tayyorlashda qo'llash. Bu usulni qo'llaganda naslli qurtlar boqishni o'tkazish, to'plam va pillalarni tanlashda belgilangan qoida tartiblariga rioya qilish. Ma'lumki, Respublikamizning pilla yetishtirish asosan, viloyatlar shaharlarida ko'rsatib kelayotgan urug'chilik korxonalariga bog'liq. Respublikamiz shaharlaridagi urug'chilik korxonalari asosan sanoat urug'i yetkazib beruvchi birinchi bo'limdir. Bu korxonalarda tayyorlangan urug'ning sifati ipakchilik ilmiy tekshirish institutining "Ipak qurti urug'chiligi" bo'limi olimlari kuzatib boradilar. Bu yerda har bir urug' zavodi tomonidan tayyorlangan tuxumlar har bir korxonada alohida-alohida boqilib taqqoslanib boriladi va olimlarimiz tomonidan tahlil qilinadi. Turli viloyatlarning tuxumchilik korxonalaridan keltirilgan pilla namunalari biologik ko'rsatkichlari pilla tuxumlari o'rtacha vazni nazorati kuzatilganda 23 ma'lumotlar olingan. Kattaqo'rg'on urug' zavodidan keltirilgan Atlas×Asaka duragayi 1 dona pillasining o'rtacha og'irligi Marg'ilon×Marhamat duragayiga nisbatan 2 mg yuqori bo'ldi. Pilla qobig'ining og'irligi 59 mg, ipakchanligi esa 2,2% ga ko'p ekanligi aniqlandi. Mechennaya 2 zotini 3 ta tuxumchilik zavodi bo'yicha tahlil qilganimizda Tovoqsoy urug' zavodidagi pillaning o'rtacha vazni – 1,44 g, pilla qobig'ining o'rtacha vazni – 346 mg va pillaning ipakchanligi – 24,5% ni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Samarqand va Buxoro urug' zavodlarinikiga qaraganda yuqori ekanligi aniqlandi. Tuxumlarning o'rtacha vaznini tahlil

qilganimizda Mech.1 zotini ko'rsatkichlari quyidagicha bo'ldi. Mechennaya 1 Samarqand urug' zavodi Buxoro urug' zavodi Tovoqsoy urug' zavodi –0,693 mg –0,550 mg –0,758 mg Ko'rinib turibdiki, Tovoqsoy urug' zavodidagi 1 dona tuxumning o'rtacha vazni qolgan viloyatlarnikidan ancha yuqori. Har bir tuxum partiyasidan olingan namunalarda bo'yicha tuxumning o'rtacha vazni aniqlandi. Tuxumlarning o'rtacha vazni asosiy ko'rsatkichlaridan biri hisoblanib, tuxumning sifatini belgilaydi. Uning katta yoki kichikligi ko'p sharoitlarga, jumladan, ipak qurti zotiga, duragayiga, ota-onalik ko'rsatkichlariga qurtlarni boqish agrotexnikasiga va tuxumni saqlash estivasiga va qishlash davrlari va hokazolarga bog'liq bo'ladi.

Ipak qurti urug'chiligi tizimini rivojlantirish iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu sohaning rivoji ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ipak qurti urug'chiligida yuqori natijalarga erishish mumkin. Prezidentimizning joriy yil 1 iyulda «Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi.

Unga ko'ra, 2023-yil iyundan hududlarda ipak qurtini parvarishlash, yetishtirilgan pillani xarid qilish, qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tayyor mahsulotni ichki bozorga yo'naltirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan yangi pillachilik klasterlari, tut ko'chatlarini yetishtirish, tutzorlarni barpo qilish, ipak qurtini parvarishlash, pilla xomashyosini tayyorlash bilan shug'ullanadigan pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi yangi fermer xo'jaliklari tashkil etiladi. Yangi tutzorlar barpo qilish uchun 105 ming gektar yer maydonlari ularning konturlari aniq belgilangan holda ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi. Yangi tutzorlar barpo qilish uchun yer uchastkalari 10 gektardan kam bo'lmagan o'lchamda pillachilik klasterlari, pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklariga, istisno tariqasida, ijara huquqi asosida ajratiladi. Farmonga ko'ra, hududiy "Agropilla" mas'uliyati cheklangan jamiyatlariga tegishli Prezidentimizning joriy yil 1 iyulda «Pillachilik sohasida kasanachilikni qo'llab-quvvatlash hamda pilla yetishtirish uchun ozuqa bazasini yanada kengaytirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra, 2023-yil iyundan hududlarda ipak qurtini parvarishlash, yetishtirilgan pillani

xarid qilish, qayta ishlash, qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish, tayyor mahsulotni ichki bozorga yo'naltirish va eksport qilish bilan shug'ullanadigan yangi pillachilik klasterlari, tut ko'chatlarini yetishtirish, tutzorlarni barpo qilish, ipak qurtini parvarishlash, pilla xomashyosini tayyorlash bilan shug'ullanadigan pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi yangi fermer xo'jaliklari tashkil etiladi. Yangi tutzorlar barpo qilish uchun 105 ming gektar yer maydonlari ularning konturlari aniq belgilangan holda Ipakchilik va jun sanoatini rivojlantirish qo'mitasiga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratiladi. Yangi tutzorlar barpo qilish uchun yer uchastkalari 10 gektardan kam bo'lmagan o'lchamda pillachilik klasterlari, pillachilik va tutchilik yo'nalishidagi fermer xo'jaliklariga, istisno tariqasida, ijara huquqi asosida ajratiladi.

Ipak qurti urug'larini ishlab chiqarish jarayoniga innovatsion texnologiyalarni qo'llash unumdorlikni oshiradi. Masalan, genetik seleksiya va laboratoriya usullaridan foydalanish yuqori sifatli urug'larni olish imkonini beradi.

Ipak qurti urug'chiligi tizimini rivojlantirish iqtisodiyotning strategik tarmog'i sifatida katta ahamiyatga ega. Ushbu sohaning rivoji ekologik muvozanatni ta'minlash, yangi texnologiyalarni joriy qilish va eksport hajmini oshirish imkonini beradi. Yuqoridagi chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali ipak qurti urug'chiligida yuqori natijalarga erishish mumkin. Tadqiqot institutlari va olimlarning o'zaro hamkorligini rivojlantirish, yangi navlarni yaratish, iqlimga mos urug'larni ishlab chiqarish muhimdir. Shu bilan birga, kasallik va zararkunandalarga chidamli navlarni yaratishga alohida e'tibor qaratish kerak. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanish, ekologik muvozanatni saqlash orqali ipak qurti boqish uchun qulay sharoit yaratish kerak. Xulosa qilib aytganda, ipak qurti urug'chiligini rivojlantirish tizimli yondashuvni, innovatsion texnologiyalarni qo'llashni va resurslarni samarali boshqarishni talab qiladi. Shu yo'l bilan yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish va sohaning global miqyosdagi raqobatbardoshligini oshirish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Abduqodirov Sh. – Pillachiligimiz tarixidan lavhalar. Toshkent, «Fan», 2000-y.
2. Rojdestvenskiy K.M., Toirov Z.T., Sheveleva A.A. «Tut ipak qurti biologiyasi». «O'qituvchi» nashriyoti. Toshkent -2009 y
3. O'zbekiston ensklopediyasi. 553 bet.
4. Sobirov S., Ahmedov N., Azizov T. "Ipak qurti kasalliklari diagnostikasi va epizotologiyasi" T. – 2015-yil.
5. Xibbimov M., Ahmedov N. "Tutchilik" T. – 2015-yil 9. Michael McCarthy "English Vocabulary in use". Cambridge University Press, 2015, Presented by British Council. 10. Ed .Y.Tazima Silkworm Tokio KODANSHA LTD. 2015
6. cncycl.accoona.ru
7. www.mavicanet.com